

Mundarija

Kirish

1. Model tanlash va asoslash.
2. Material tanlash va asoslash.
3. Konstruksiya qismi.
 - 3.1. Konstruksiya usulini tanlas va asoslash.
 - 3.2. Buyum asosiy detallari chizmalarini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar.
 - 3.3. Konstruksiya xisobi va uni qurish.
- 4.1. Texnologik qism.
5. Texnologik jarayonlarni loyixalash.
 - 5.1. Ishlab chiqarish oqimining shakl va turini tanlash.
 - 5.2. Ishlab chiqarish oqimining asosiy parametrlari
 - 5.3. Ishlab chiqarish oqimining texnologik sxemasini tuzish
 - 5.4. Ishlab chiqarish oqimining texnologik sxemasini taxlil qilish
 - 5.5. Oqimning texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlarini xisoblash
 - 5.6. Ishlab chiqarish oqimida ish o'rinlarini joylashtirish va sex planini tuzish.
- Xulosa.
- Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish

Kirish

O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik va yengil sanoat rivojlanishi uchun katta miqdordagi hom ashyo resurslari mavjud. Ushbu resurslardan tayyor maxsulot buyumlar bilan jahon bozoriga chiqish respublikamiz iqtisodiyotining yetakchi yo'nalishlaridan biridir. Shu bois mamlakatimizda yengil sanoat tizimini takomillashtirish va uni hozirgi zamon talablariga moslashtirish zamonaviy texnologiyalarga asoslangan jahon andozalari darajasidagi tizimini yaratish umumdavlat siyosatini muhim vasifasidan biri hisoblanmoqda. Prezidentimiz 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida o'tgan yili mamlakatimizda faol investitsiya siyosati olib borilishi natijasida ko'plab zamonaviy korxonalar ishga tushirilganligini guvohi bo'lamiz.

Agar hom ashyo materiallarni qayta ishlovchi kichik va o'rta korxonalar faoliyati rivojlantirilsa, xalqimizning maxsulotlarga bo'lgan talabini qondiradi, hom ashyo eksportini kamaytirib balki ularni tayyor maxsulot importi va valyutani tashqi davlatlarga chiqib ketishini oldini oladi. Hom ashyo va materiallarni qayta ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonalar boshqa tarmoqlardagi kichik va o'rta korxonalarga

nisbatan ko'proq ishchi kuchlarini talab qiladi bu esa mavjud ishsizlik masalalarini xal etishga yordam beradi.

Yengil sanoatni boshqarishni takomillashtirish va ular uchun qulay sharoitlar yaratish lozimdir.

Buning uchun quyidagilarga e'tibor qaratish kerak;

1. Ichki va tashqi bozorlarning marketing tadqiqotlarini amalga oshirish, yengil sanoat maxsulotlariga bo'lgan ehtiyojning o'sishini o'rganish va bashorat qilish.

2. Respublika iste'mol bozorini aholi o'rtasida haridorgir bo'lgan yuqori sifatli yengil sanoat mahsulotlari bilan to'ldirilishini ta'minlash.

3. Tarmoqning eksport salohiyatini mustahkamlash kichik korxonalar tomonidan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni qulaylashtirish hamda ularni jahon bozoriga yo'naltirish.

4. Tarmoqda yangi texnika va investitsiya siyosatini o'tkazish yengil sanoat korxonalari respublikaning aholi zich yashaydigan hududlarida joylashtirishni tashkil etish.

5. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yangi va sifatli maxsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish, tarmoq korxonalarini yangi texnika bilan jihozlash uchun horijiy sarmoyalarni keng jalb etish.

6. Bozor islohatlarini samarali amalga oshirish uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish kabi asosiy vazifa va yo'nalishlarni belgilab berdi.

Ishlab chiqarish tizimi ichki va tashqi bozor talabini uzliksiz qondirishga moslashgan bo'lishi kerak, bunga iqtisodiy tizim strategik yo'nalishlarni ratsional tanlash orqali erishiladi. Ichki va tashqi bozor talabini barqaror qondirish uchun ko'pgina omillar hisobga olinadi. Bu omillar (Tovar xususiyati, ishlab chiqarish xarajatlari, tovar narxi, tovarga talab, sotish hajmi, daromad) ta'sirini axborot texnologiyalari va tizimli matematik modellarni qo'llash orqali aniqlash yuqori samara beradi.

Yengil sanoat, qishloq xo'jaligi sanoati, transport va ijtimoiy sohalardan tarkib topgan murakkab dinamik tizimdir. Yengil sanoat tarmoqlarini rivojlantirish mutanosibligi o'sish darajasi va ishlab chiqarish samaradorligi asosan boshqarish darajasining sifatiga bog'liq.

Shu sababli men ushbu Bitiruv Malakaviy Ishimda "Sumka va portfellar tikish uchun materiallar assortimentini tanlash" mavzusi bo'yicha sumka tikish uchun materiallar assortimentini tanlash yangi model dizayn loyihasini va uni tayyorlash texnologik jarayonini ishlab chiqish mavzusini zamonaviy kompyuter dasturida AUTO CAD 2010 Adobe Photoshop

CS4,GERBER tizimidan keng foydalangan holda yozdim. Bakalavr darajasini olish uchun tayyorlagan Bitiruv Malakaviy Ishim 5 bob,umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

Xulosa qismida Bitiruv Malakaviy Ishim yuzasidan taklif va mulohazalar berilgan.

1- D izayn – loyihaning Muxandis konstruktorlik qismi

Model tanlash va asoslash

Tanlangan buyum assortimenti kundalik titib yurish uchun mo'ljallangani sababli unung asosiy vazifasi quydagicha:Portfel va sumkalar asosan zarur xijjatlar, kitoblar va h.zo buyumlar solib yurish uchun eng yaxshi buyum vositasidir.Shunga ko'ra ular namlikni shimmaydigan, tashqi ta'sirlarga chidamli, pishiq, tutib yurish uchun qulay hamda oddiy va bejrim bo'lishi shart.Quyida texnik –iqtisodiy ko'rsatkichlarga va qolaversa buyumga qo'yilgan talablarning barchasiga javob bergan taklif modellardan biri tanlab olindi.

Ayollar uchun tavsiya etilayotgan sumka modeli xamma talablarga javob berishi bilan bir qatorda tutish uchun juda qulay yengil va soddaligi bilan farqlanadi.Charm matosidan tikilgan ushbu sumka konstruksiya jixatidan ham ko'p qiyinchiliklar tug'dirmaydi.Texnologik jizatdan kam operatsiyali xisoblangan sumka modelini ishlab chiqarish va sumka ishlab chiqaradigan sexni loyixalash murakkablik tug;dirmagani uchun tanlab oldim.

Loyihalash uchun dastlabki ma'lumotlar va texnik topshiriqni shakllanishini ishlab chiqish.

Texnik topshiriq assortimentning asosiy vazifasi, texnik va texnologik xarakteristikasi, sifat ko'rsatkichlari va texnik iqtisodiy talablar loyixani bajarish asosiy etaplari, ko'rsatilgan konstruktorlik xujjatidir.

Loyiha obyekt: ayollar sumkasi

Loyiha obyekt vazifasi: kundalik ishchi

Buyumning o'lcham tavsifi: Bo'y 32 Eni 38

Material nomi: Charm

Yosh guruxi: o'rta yosh

Mavsumi: kuz, qish, baxor.

Buyumga qo'yiladigan talablar:

Sumka va portfellarga qo'yiladigan talablar ikki guruxga bo'linadi: istemolchi va texnik iqtisodiy talablari inson o'z extiyojini qondirishga qaratilganidir, ular ijtimoiy, estetik, ergonomik va eksplutatsion talablarni o'z ichiga olgan.

Eksplutatsion talablar: buyumdan foydalanish va kiyish mobaynida uning o'z tashqi ko'rinishini o'zgartirmasligi, tez eskirmasligi va ma'lum muddat xizmat qilish qobileatini

belgilaydi. Komplekt materiyali kirchimol, fakturasi silliq bo'lganidan kir va changni o'ziga kam yuqtiradi. Portfel komplekti yemirilish va yirtilishga, nam havo ta'siriga chidamli bo'lishi kerak.

Ijtimoiy talablar: kiyimning aholi ehtiyojlariga mosligini uni ishlab chiqarish va sotish zaruratini belgilaydi.

Funksional talablar: kiyimning asosiy funksialarga mosligini iste'molchining psixologik xususiyatlari va tashqi qiyofasiga mosligini xarakterlaydi. Sumka va portfellarning asosiy vazifasi-kundalik tutib yurish uchun zarur qo'llanmalar solish nootebooklar uchun mo'ljallanganligi, portfel va sumkalar o'rta yoshlilar uchun mosdir.

Estetik talablar: kiyim sifatini baxolashda muxim o'rin tutadi va buyum ko'rinishining bezatilishi ko'mporotsion yechimini xarakterlaydi portfel zamonaviy moda yo'nalishiga uning kompozitsion yechimli bezak elementlari kundalik buyum uchun munosibdir.

Ergonomik talablar: buyumni tutish mobaynida uning insonga qulay sharoit tug'dirish xususiyatini belgilaydi.

Texnik iqtisodiy talablar: buyum konstruksiyasining texnik jixatdan takomilligini uni loyixalash va tikish usullarini kiyimni ishlab chiqarishga ketgan sarf xarajatlarni xarakterlaydi. Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarga unifikatsiya va standartizatsiya

ko'rsatkichi texnologik jixatdan qulaylik,tejamkorlik
ko'rsatkichlari kiradi.

Buyumga qo'yiladigan talablarni konkretlashtirish uchun sifat
ko'rsatkichlarini ranjirlash bilan baxolanadi.

Loyihalanayotgan obyekt sifat ko'rsatkichlarini ranjirlash

1-jadval

Sifat ko'rsatkichi nomi		Rang
1-daraja	2-daraja	3-daraja
Istemolchi shu jumladan	gigiyenik	3
	ergonomik	3
	eksplutatsion	4
	funksional	2
	estetik	1
Texnik - iqtisodiy	Unifikatsiya va standartizatsiya	1
	Texnik jixatdan qulaylik	2
	Tejamkorlik	3

1-2 Berilgan assortiment uchun zamonaviy moda yo'nalishi tavsifi

Sumka va portfellar moda yo'nalishi, dunyo moda yo'nalishi ta'sirida bo'lib, bunda shaxsning obro- e'tibori va mavqei muxim o'rin egallaydi. Modani yo'naltiruvchi asosiy vaqt bo'lib, xx asrning oxirgi uchligi xizmat qiladi. Lekin bu davrning modasi to'laligicha qaytarilmaydi, faqatgina o'sha davr uslubining zamonaviylashgan ma'lum elementlari qo'llaniladi. Sumka va portfellarda ham shu jarayon takrorlanadi.

Moda olamida komplekt kiyimlarining to'ldiruvchi qismi bu albatta sumka va portfellardir. 2012-yil portfellar zamonaviy moda yo'nalishi quydagicha: to'g'ri to'rtburchak shaklini to'la qaytaradigan xujjatlar solish uchun kompakt ko'rinishidagi ixcham, maxsus kompyuterlarga mo'ljallangan yoki eni 8-10 sm bo'lgan portfellar urf bo'ladi.

Portfel: 1 yoki 2 cho'ntakli 1 ta katta 45 sm va kichik 15 sm molnya tasmali, qo'shimcha furniturali bo'lishi mumkin.

Portfel yon qismida qo'shimcha qoplama cho'ntak loyihalanishi va bu cho'ntaklar qopqoqli bo'lishi ham mumkin bu albatta xaridorlar hohishiga bog'liq.

Bundan tashqari portfel va sumkalar o'lchamlari odatdagidan ancha kichikroq ya'ni katmoncha o'lchamidan

biroz kattaroq bo'lishi, old qismi molnya tasmali yoki maxsus ilgichli va katta kichik ushlagichlari bo'lishini e'tirof etishmoqda.

Ranglari -qora,ko'k,kulrang,jigarrang, to'q ko'k,qora va boshqa yorqin ranglar kombinatsiyasi va x.z.

Materiyallar-qalin to'qimali(zich) platshovka, aralash gazlamalar, elastanli cho'ziluvchan gazlamalar, gabardin, charm, sun'iy charm va barxat.

Naqsh va gazlama gulli,klassik ingichka yo'l –yo'l gulli, bilinar bilinmas kletka, murakkab o'simlik nusxali naqshli.Gazlama yaltiroq yoki to'q rangda (yaltiramagan) bo'lishi mumkin.

Dunyoning bir qator yetuk dizaynerlari portfellar qo'shimcha qatlamli yoki qatlamlarsiz, astarli va astarsiz bo'lishi mumkinligi haqida takidlashmoqda.

Sumkalar uchun ham yuqoridagi materiallarning barchasi birdek mos keladi. Odatdagidan biroz boshqacharoq tarzda bu yil sumkalarning biroz ixchamroqlari va aksincha modellari urfga kiradi.Sumka ilgichlari o'rtacha uzunlikda bo'lib asosiy avra materialning o'zidan yoki kombenatsiyalangan bo'lishi mumkin.Og'ir tutib yurish uchun noqulay sumkalar loyixalash dan chekingan dizaynerlar bu mavsumga oddiy, bejrim, yengil bir cho'ntakli sumkalarni taqdim etishmoqda.

Material tanlash va asoslash

Xammamizga birdek ma'lumki kiyim yoki biron buyum tanlashdan oldin uning bizning kiyinish uslubimizga, yoshimizga, ishlab yoki o'qib turgan joyimiz mavqe'iga va albatta iqlim sharoitimizga to'g'ri kelishini inobatga olishdir.

O'zbekiston Respublikasining iqlim zonasi o'zgaruvchanligini, xarorati yuqoriligini yog'ingarchilik va namlik miqdori o'rtachaligini e'tibordan chetda qoldirmay men erkaklar portfeli uchun charm, sun'iy charm, platshovka va bir qator portfelbop sintetik matolarni tanlab oldim.

Bu matolarni tanlab olishimga bir qancha arzirli sabablar bo'lib bular: materiallarning quyosh nuri va yog'ingarchilik ta'siriga chidamliligi, suv va namni o'tkazmasligi, g'ijimlanmasligi, kirishmasligi, draplanmasligidir.

Bundan tashqari bunday materiallardan tayyorlangan sumka va portfellar xar qanday sharoit uchun qulayligidadir.



List	Xujjat	Imzo	Sana	B M I -2012	List
Bajardi:	Rasulova.G			TM-1	
Tekshirdi:	Niyozova.A				



List	Xujjat	Imzo	Sana	B M I -2012	List
Bajardi:	Rasulova.G			TM-2	
Tekshirdi:	Niyozova.A				



List	Tekshirdi:	Imzo	Sana	B M I -2012	List
Bajardi:	Rasulova.G			TM-3	
Tekshirdi:	Niyozova.A				

3- model tarifi

O'rta yoshli ayollar, talaba qizlar, uchun mo'ljallangan ushbu sumka modeli, charm matosidan tikilgan bo'lib, tutib yurish uchun juda qulay. Oddiy hech qanday ortiqcha elementar loyixalarsiz ishlangan sumka eni 32 sm bo'yi esa 38 smni tashkil qiladi Ikkita kichkina ilgichlar yelka va qo'lda tutib yurish uchun birdek qulay.

Sumka ichki tomoniga astar bilan ishlov berilgan. Sumka old bo'lagi ham ort bo'lagi ham yahlit bitta bichilgan bo'lib taqilmasi molnya tasmalidir. Molnya tasmasi ayollar sumkasi uchun eng maqul taqilma turidir. Molnya tasmasi temirdan yoki plitmassadan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari model konstruksiyasi juda tushunarli bo'lib sumkani loyixalashda qiyinchilik tug'dirmaydi.

1-model tavsifi

O'rta yoshli erkaklar, talabalar, ishbilarmon kishilar uchun mo'ljallangan portfel. Sun'iy charm matosidan tikilgan. Gazlama fakturasi og'ir, qora rangli, yaltiroq, yilning barcha fasllarida tutish uchun mo'ljallangan.

Portfel bo'yi 28 sm eni esa 40 sm bo'lib og'irligi o'rtacha. Old bo'lagida bitta qadagich loyihalangan bo'lib u portfel markazida joylashgan. Ort bo'lagida bitta molnya taqilmali cho'ntagi mavjud.

Portfel ichki qismi ikkita cho'ntakli bo'lib astar bilan ishlov berib tikilgan. Ort bo'lakdan bitta yaxlit qopqoq kelib old bo'lak bilan tutashadi va ilgich yopiladi.

Kichgina tutgichli bu portfel soda va zamonaviyligi bilan ajralib turadi.

2-model tavsifi

Asosan talabalar va o'rta yoshli erkaklar uchun mo'ljallangan portfel. Suniylashtirilmagan charm matosidan tikilgan. Gazlama fakturasi o'rtacha yengil, jigarrang yaltiramagan(tim) kuz, qish, baxor fasillarida tutish uchun tavsiya etiladi.

Portfel bo'yi 31 sm eni 40 sm o'lchamlari bo'yicha konstruksiyalangan.

Old bo'lagida bitta katta va kichkina molnya tasmali cho'ntak loyihalangan. Portfel ichki tomoni bitta cho'ntakli astarsiz.

Bitta katta va kichkina ushlagichli ushbu portfel eksplutatsion talablarga to'liq javob bera olgani uchun Taklif modellar qatoriga kiritilgan.

Taklif modellarning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha baxolanishi

2-jadval

№	Guruxli va yakka sifat ko'rsatkichlarning nomi	SK Belgilanishi	SK ahamiyatliligi			
			TM- 1	TM- 2	ATM- 3	Etalon
1	Istemolchi SK	K-1	63,5	66	78,98	63,5
	Funksional	K-21	11,5	11	10,94	11,5
	Ijtimoiy	K-11	11,5	10	18,25	11,5
	Estetik	K-31	15	16	20,41	15
	Ergonomik	K-41	13	16	15,26	13
	Eksplutatsion	K-51	12,5	13	14,12	12,5
2	Texnik – iqtisodiy SK	K-2	32	32	21,02	36,5
	Standartizatsiya va unifikatsiya	K-12	11	11	8,16	11
	Ishlov berishga qulaylik	K-22	12	11	8,71	14,5
	Tejamlilik	K-33	9	10	4,15	11
	Jami		95,52	98	100	100

2-1 Loyixa obyekt paketini konfeksionlash

Asosiy avra gazlama sifatida charm, sun'iy charm, platshovka, tukli va tuksiz shaklni saqlovchi sintetik portfelbop gazlama tavsiya etiladi. Portfellar va sumkalar uchun eng ko'ptarqalgan avra gazlamalar assortimenti triko, movut, charm, sun'iy charm, vilvet, konver- kon, tvid, fanel kabi klassik artikullar bilan bir qatorda cho'zil- uvchan va cho'zilmaydigan kirishmaydigan silliq va tukli, o'yma naqshli jakkard, sintetik gazlamalar artikuli ham kiradi. Avra gazlamalar kam g'ijimlanuvchan shakl saqlovchi, cho'zil- maydigan, kirishmaydigan, pishiq, kirchimol bo'lishi kerak. Bu talabalar va o'rta yoshli erkaklar ayniqsa ish va kundalik tutishi uchun mo'ljallangan portfel uchun muximdir. Shu bilan bir qatorda avra gazlama rangi oftob va ob- havo ta'sirida, shakllan- ishga chidamli bo'lishi kerak.

Sumkalar va portfellar uchun ishlatiladigan eng asosiy gazlamalar:

Yarim jun portfel va sumkabop va lavsan tolali gazlamalardir, ularning tolaviy tarkibi 40% jun 60% lavsan yoki aksincha.

Tarkibida viskoza tolali yarim jun gazlamalarda viskoza tolasi 50% ni tashkil qiladi, ular lavsan tolali gazlamalarga qaraganda kirishuvchan va g'ijimlanuvchanroqdir. Shu bilan birga portfellar va sumkalar uchun toza jun gazlamalar (100% jun)

ham ishlatiladi. Ular tarkibida, faqat ozgina (2-8 %) tolasi qo'shilishi mumkin.

Portfel va sumkalar astari uchun sintetik shoyi astarlik gazlamalar tavsiya etiladi. Portfelni, sumkani ochib yopganda xar xil buyumlar ta'sirida astarlik mato siljimasligi, tarang tortilib xalaqit qilmasligi zarur. Shuning uchun astar gazlamalar silliq sirpanuvchan fakturali (sirtli) bo'lgani ma'quldir.

Qotirmalik materiallar sifatida qo'yiladigan gazlamalar dublirin, noto'qima materiallar (proklamerin) maxsus kartonlar, poletelen figuralar va boshqa gazlamalar ishlatiladi.

Portfel va sumkalar uchun mo'ljallangan zamonaviy qotirma gazlamalarga quyidagilar kiradi:

- yelim qoplamali ko'p zonali qotirma materiallar old bo'lakka butunligicha bo'y va en barobar yopishtiriladi.
- trikotaj polotnolari mayda detallariga
- zig'ir tolali gazlamalardan
- bukiah chiziqlariga cho'ntak og'ziga qo'yiladigan yelim kukun surilgan surp gazlamadan yelim uqalar ,yelimli kromkalar
- cho'ntaklarni ichki devor cho'ntaklarini tushintirish uchun ishlatiladigan tukli yelimli qotirma gazlama.

Portfel va sumkalar uchun lavsan tolali gazlamalar og'ir teksturlangan ipli zich to'qilgan (yuza zichligi 140-190 g/m)

teksturlangan poliefir iplardan to'qilgan silliq fakturali gazlamalar ham tavsiya etiladi. Ularning tolaviy tarkibi 40% jun, 60% lavsan , 100% sun'iy tola va boshqa aralashmadir, yoki aksincha. Tarkibida viskoza tolali yarim jun gazlamalarda, viskoza tolasi 50% ni tashkil qiladi, ular lavsan tolali gazlamaga qaraganda kirishuvchan va g'ijimlanuvchan-dir. Ipli portfelbop gazlamalar turkumiga vilvet, jins, koverkot kabilar kiradi. Bunday gazlamalarga qo'yiladigan muhim talablardan biri egiluvchanlik, elasthanlik, draplanuvchanlik ular kiyim tikish texnologiyasiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Tavsiya qilingan materiallar xarakteristikasi

3-jadval

	Material nomi	Tola tarkibi		10 sm da zichligi		O'rilishi	kengligi sm	Og'irligi g/m
		Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq			
1	Charm	jun	jun					200-220
2	Astarlik	viskoza	viskoza	420	360	sarja	140	80-100
3	Dublirin	viskoza	viskoza	270	230	polotno	150	90-120

Konfeksion karta

4-jadval

Buyum nomi	Tavsiya o'lchami	Gazlama na'munalari		
Modelning homaki rasimi		avra	astar	qotirmalik material
				
		yelimlik	bezak	furnitura

2.2 Asosiy konstruksiya qurish usulini asoslab tanlash.

Kiyim va buyumni kostruksiyalash – bu murakkab jarayon . Bu tikuvchilik buyumlarini yaxshilash umumiy jarayonning tarkibiy qismi bo'lib, bu ishda modelyer –rassomlar, konstruktorlar,materialshunoslar,taxnologlar singari ko'plab mutaxasisllar mehnat qiladilar.Erkaklar portfeli ni kostyumni konstruksiyalshda YEMKO SEV metodikasidan foydalanildi. Bu usul analitik hisoblash usuli qatoriga kiradi.U ilmiy jihatdan aniqlangan bo'lib tipavoy o'lchamlar klasifikatsiyasiga tayanadi. Hamda tikuvchilik sanoatida individual (yakka buyurtma asosida) ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

Ularning avzalligi shundaki hisob formulalar matematik jihatdan asoslangan, hamda konstruktiv parametrlar va konstruktiv qo'shimlar orasidagi qonuniy bog'lanishlarni o'zida aks ettirgan.

YEMKO SEV metodikasi bo'yicha konstruksiya ikki etapda quriladi. Birinchisi bo'yicha asos konstruksiya qurish ikkinchi etapda esa dekorativ chiziqlar va model xususiyatlarini chizish.

Konstruksiyaning barcha elementlari xisob formulalari orqali topiladi. Moda va model o'zgarishi bilan chizma qurish pryomlari va asosiy formulalar strukturasi o'zgarmaydi. Faqat alohida parametrlar va koyfitsentlar o'zgarishi mumkin.Usul bo'yicha konstruksiya qurishda ikki tipdagi dastlabki ma'lumotlardan foydalanish mumkin tipavoy va individual figuralar o'lchamidan. Ushbu metodika nisbatan yangi bo'lib u tikuv korxonalariga tadbiiq qilingan.

YEMKO SEV turli yosh- jins guruxlari uchun kiyim va buyum konstruksiyalashda qo'llanilishi mumkin: ayollar, erkaklar, qiz va o'g'il bolalar. Metodika ko'rsatilgan guruxlardagi aholi uchun usti yelka bel va qo'shimcha kiyimlarni barcha turlarini konstruksiyalashda qo'llaniladi va shu sababli u uneversal xisoblanadi. Metodikaning ya'na bir xususiyati unda asosiy konstruktiv bo'laklarni konstruksiyalash moda yo'nalishi kiyim konstuksiyasi va material xususiyatiga bog'liq emas. Xar bir xisob formulasi o'z tartib nomeriga ega, barcha kiyim turini qurishni yagona tartibi belgilanadi.

Konstruktiv bo'laklar razmer o'lchamlari va ularga mos konstruktiv qo'shimchalar texnologik q]shimchalar tizimi orqali aniqlanadi.

YEMKO SEV da asosiy birinshi turdagi formulalar ishlatiladi.

YEMKO SEVning ya'na bir afzalligi konstruksiyaning avtomatlashtirilgan tarzda qurish imkoniyatidir. Xisob formulalar tartibi va AK grafik qurish usullari algoritmlash va EXM dasturini qurish uchun qulay xisoblanadi.

Tipavoy (individual) figura o'lchamlari 5-jadval

№	O'lchamlar nomi	Shartli belgisi	Qiymatli
1	2	3	4
1	Buyum eni	T 1	32
2	Buyum bo'yi	T 2	38
3	Ushlagich bo'yi	T 4	30
4	Ushlagich eni	T 5	4
5	Yon bo'lak bo'yi	T 6	100
6	Yon bo'lak eni	T 7	10

AK qurish uchun qo'shimchalar


6-jadval

№	Qo'shimchalar nomi	Shartli bel	Qiymatli sm
1	2	3	4
1	Buyum bo'yiga beriladigan qo'shimcha	BB-q	3-5
2	Buyum eniga beriladigan qo'shim	BE- q	3-5
3	Ushlagich eniga beriladigan qo'shim	KUE-q	2-3
4	Ushlagich bo'yiga beriladigan qo'shim	UB-q	2
5	Yon bo'lak eniga beriladigan qo'shim	YBE-q	3
6	Yon bo'lak bo'yiga beriladigan qo'shim	YBB-q	2

Loyixalanayotgan model AK xisobi tanlash

7-jadval

№	Konstruksiya bo'lagi nomi		Xisobi	Qiymati,sm
	nomi	belgilanishi		
1	2	3	4	5
1	Old bo'lak tepa cho'ntak qismi	T-T1	$32:2+1.5=$	17.5 sm
2	Ort bo'lak tepa qismi	T-T2	$32:2+1.5=$	17.5 sm
3	Old bo'lak o'rta qismi	T1-T3	$38:2+2=$	21 sm
4	Pastki qism	T4- T5	$32:2+1.5-2.5=$	15 sm
5	Yon bo'lak eni	B-B1	$10+3$	13 sm



Ishchi xujjatlar

Andozalardagi chok xaqqlari

8-jadval

t/r	Detal qirqimlar nomlari	Chok xaqqi nomi va qiymati sm				IZOX
		Biriktirma chok	Mag'iz chok	Buklash qayirish	Qirqish	
1	Old bo'lak yon qirqimi	2sm				
2	Ort bo'lak yon qirqimi	2sm				
3	Old bo'lak qo'shimcha bo'lak bilan tikish qirqimi	1sm				
4	Old va ort bo'laklar bilan yon bo'lakni tikish	1.5sm				
5	Astarlarni biriktirib tikish	1sm				
6	Ilgichlarni tikish			1sm		
7	Ilgichlarni asos detallar bilan tikish			1sm		

Detallar spetifikatsiyasi

9-jadval

t/r	Buyum detallarining nomi	Bo'laklarda kod belgisi	Soni		IZOX
			Andozada	Bichiqda	
1	Old bo'lak	001	1	1	
2	Ort bo'lak	002	1	1	
3	Yon bo'lak	003	1	1	
4	Qo'shimcha qatlam	004	1	2	
5	Ilgich	005	1	2	
6	Astar	006	1	2	

Andozalarda nazorat kertiklarini qo'tish

10-jadval

t/r	Detal nomi	Qirqim nomi	Kertik o'rni
1	Oli bo'lak	Yon qirqim	Cho'ntak og'zidan 15 sm pastda
2	Ort bo'lak	Yon qirqim	Cho'ntak og'zidan 15 sm pastda
3	Yon bo'lak	Yon qirqim	O'rta chiziq satxida
4	Ilgich	Tepa qirqim	Ulanish joyidan 8 sm masofada

Bo'laklarda tanda ipining nominal yo'nalishi va andozalarda ulardan yo'l qo'yilgan og'ishlar

11-jadval

Bo'lak belgisi	Bo'lak nomi	Tanda ipining yo'nalishi	Tanda ipining yo'l qo'yilgan o'g'ishi
Avra bo'laklar			
001	Old bo'lak	O'rta qirqimdan vertikal chiziqqa paralel	2
002	Ort bo'lak	O'rta qirqimdan vertikal chiziqqa paralel	2
003	Yon bo'lak	Cho'ntak og'zi qirqimiga paralel	1.5
004	Qo'shimcha bo'lak	Eniga paralel	1
005	Ilgich	Bo'yiga paralel	1
Astar bo'lagi			
006	Old va ort astar bo'laklari	O'rta qirqimiga paralel	3

Ayollar sumkasi andozalarining maydononi

12-jadval

Detal nomi	Spetifikatsiya bo'yicha detal nomeri	Detallar soni		Detallar maydoni
		Andozada	Bichiqda	
Old bo'lak	001	1	1	34/40 sm
Ort bo'lak	002	1	1	34/40 sm
Yon bo'lak	003	1	1	100/10sm
Qo'shimcha bo'lak	004	1	2	34/5sm
Ilgich	005	1	2	30/4sm
Astarlar	006	1	2	76/84sm
Jami				120sm _{avra} 100sm _{astar}

Yangi model detallari yoyilmasida andozalararo chiqitlar xisobi

13-jadval

Tarmoq normativlari bo'yicha andozalararo chiqitlar miqdori	15
Umumiy norma model xususiyatiga qo'shimcha	2
Yangi model detallar yoyilmasiga oid andozalararo chiqitlar jamlangan miqdori	11

2- Texnologik qism

Texnologik tartibni tuzish va iqtisodiy samaradorlikni hisoblash

Ma'lum modelni tikish uchun texnologik tartibni tuzish ishlab chiqarish jarayonlarining samarali kechishida muxim omil hisoblanadi. Bunda sifatni yaxshilash, unumdorlikni oshirish, vaqt sarfini kamaytirish, tannarxni kamaytirish sex maydonidan to'la foydalanish, mehnatni yengillashtirish kabi omillar e'tiborga olinadi.

Texnologik tartibni tuzishishchilarning ixtisosi bo'linmas operatsiyalar, jarayon seksiyalari, tikish usullari va tanlangan asbob-uskunalar asosida amalga oshiriladi.

Bo'linmas operatsiya deb, texnologik tugallangan va tarkibiy qismlarga bo'lish imkoniyati bo'lmagan operatsiyalarga aytiladi. Masalan (yon va o'rta qirqimlarni ulash). Bunday operatsiyalarni bo'linishi vaqt sarfini ortishi va bitta operatsiyaning turli ish o'rinlarida bajarilishi kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Kiyim tayyorlash jarayoni tayyorlov va yakuniy ishlov operatsiyalaridan tashkil topgan.

Texnologik ketma-ketlikda bo'linmas operatsiya tartib raqami, nomi, mutaxassisligi, razryad, vaqt no'rmasi va uskuna ko'rsatiladi hamda korxona yig'ilgan ma'lumotlar asoslari topshiriqqa binoan buyumga ishlov berishning amalda

qo'llanilgan sarf vaqti, ixtisosi, razryadi va asbob uskunasi bilan taqqoslagan holda jadval ko'rinishida aks ettiriladi.

Ishlov berishning mavjud usullari zamonaviy asbob uskuna va texnologiyalarini hisobga olgan holda buyumga ishlov berish usullarini taxlil qilinib, bo'linmas operatsiyalari-ning ketma ketligi qaytadan ko'rilib chiqiladi va kerak bo'lsa unga o'zgartirishlar kiritiladi.

3.1.1.Asbob-uskuna va tikish usularini tanlash va asoslash

rinchi navbatda tanlangan kiyim modeliga muvofiq ishlab chiqishda qo'llaniladigan tikish usuli xamda,xozirgi kunda ishlab chiqarish oqimida qo'llaniladigan ilg'or usullar o'rganiladi.Tanlangan modelni texnologik tikish tartibini sinchikovlik bilan qilingan taxlil asosida modelga mexnat sarfini kamaytirish va buyumni sifatini yaxshilash maqsadida asbob uskuna va tikish usuli tanlanadi.Buyum tikish texnologik tartibini tuzishda qo'llanilayotgan asbob uskuna va ularni kichik mexanizatsiya bilan ta'minlanganligi, avtomat va yarim avtomat qurilmalarini ishlab chiqarishda ishlatilishi ko'zda tutilgan.

Asbob – uskuna va tikish usullari mehnat unumdorligi va buyum sifat darajasini hisobga olgan holda tanladim. Shu bilan birga tikuvchilik sanoatini texnika va texnologiyasini takomillashtirish asosiy yo'nalishlarini, datallarini yelimgab ulash usullarini maksimal qo'llash unumdorligi yuqori bo'lgan asbob uskunalarini qo'llash, sermehnat qo'l ishlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish yaxlit bichilgan va kam operatsiyali texnologiyalar hisobga olinadi.

Ayollar sumkasini tikish uchun men dunyo tan olgan Germaniya davlatining PFAFF, MAIER va Italiya ROTONDI firmasining press va dazmollaridan foydalandim.Press va

dazmol operatsiyalarni birlashtirib qo'shimcha ish o'rnini talab qilmaydi ROTONDI firmasining FR P-16 + P-16 rusumli pressi ni tanladim. Ushbu pressning qulayligi shundaki ishchi bir joyda detalni presslash davomida ish o'rnidan chalg'imagan xolda boshqa detalni dazmollash imkoniga ega.

6330	1	Charm matosi artikuli				
	2	Qo'lda yuviladigan keyin kirishish%				
	3	Yuvilgan keyin kirishi sh %				
	4	Ko'p marta Cho'zilishdagi plastik deformatsiya,%				
	5	2N yuk ostida	Bir marta cho'ziladigan plastik dedeformatsiya%			
	6	10%li o'zgarmas cho'zilishda				
	7	Ishqalanishga chidamlilik,sikl				
	8	Havo o'tkazuvchanlik,sm / sm s				
	9	G'ijimlanmaslik,%				
	10	Egilishdagi qattqlik				
	11	Uzuvchi kuch,N				
9.9 (5.7)	10.2 (7.5)	3.0 (2.5)	20	100 (40)	90 (60)	10 (30)

Uneversal va maxsus mashinalar haqida ma'limot

16-jadval

T/r	Mashina ning sinfi va ishlab chiqaruv chi zavodi	Mashinaning nomi va maq sadga muofiqligi	Baxyalar tavsifi					Bir mint dagi baxyalar soni	Baxyani ng Eng katta uzunligi	Igna turi va raqa mi	Ip turi va raqa mi	Izo x
			Baxya	I g na	mokki	chalish Mokki tirgich	Material surgich					
1	1181-8 GERM ANIYA	PFAFF To'g'ri chiziqli bir baxyaqator yurgizadigan mashina				Ikki ipli mokk simon Bog' la nishli Bir baxya li	Diffe rensial		4,5-6 mm	100	sholk 40	
2	230 cl GERM ANIYA	MAIER Yashirin baxyal maxsus mashina				Ikki ipli komp yuter - lashg an mura kkab chizi qli chali shtir- gichli bog'l anish	Deffer ensial		1/8 mm	28 BL	55L	
3	660 cl GERM ANIYA	MAIER Nuqtali puxtalash maxsus mashinasi				Bir ipli chali shtirg ichli bog'l anish	Ostki tishli reyka		-	90 29 BD	40	

Avtomat va yarim avtomatlar ta’rifi

17-jadval

t/r	Mashinaning Sini va ish lab chiqaruv chi zavodi	Mashinani ng nomi va maqsadga muvofiqi	Bosh valning aylanish chastotasi	Bir smenadagi ish unumi	Qo’shimcha ma’lumotlar
1	2	3	4	5	6
1	3371-10/01 GERMANIYA	PFAFF Bezak furnituralar Va tugma qadash	3500 ayl/min	Bir smenada 18000ta	Ikki ipli mokki sim on bog’lanishli elek tron tugma va furni tura qadagich. Bevosita 2,3,4 teshikli Yassi tugma va fur nituralar uchun 30 ta dastur ichidan mosi ni tanlash 99 shakl dagi tikish turlari chok o’lchamini 10- 200 % gacha X,Y o’qi bo’ylab 1% qadam bilan o’zgar tirish imkoniyatini beruvchi kompyuter boshqaruvli mashina Ipni minimal uzun - likda kesish imkoni ga ega.Kompyuter o’z xotirasida 8ta ko’p ishlatiladigan choklar ro’yxatini tuzadi.
2	3115-4/51 GERMANIYA	PFAFF Dekorativ yo’rmash mashinasi	6500 ayl/min	Bir smenada 20000ta	Elektron boshqariladigan universal yo’rmash turlari bo’lib ularni o’zgartirish imkoni ga ega.

Namlab – isitib ishlash uskunalari ta’rifi 18-jadval

t/r	Uskuna nomi	Markasi va ishlab chiqaruvchi zavodi	Ish rejimi			O'lchamlari,mm			Qo'shimcha ma'lumotlar
			Xarorat°C	Bosim MPa	Vaqt sek	Uzunligi	Kengligi	Balandligi	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	Press	FRP-16+p-16	150-160	0.5	16	1300	600	1600	Usti va ostki yostiq vakum bug' bilan.
2	Dazmol	TAR FL-260	130-160	0.1 0.2		1200	600	1700	Uch fazali 0.75HPrusumli vakumli mator
3	Press	FRVT-132	150-160	0.6	16	1300	600	1600	Ustki va ostki yostiq vakum bug' bilan
4	Dazmol	GV-299	150-160	0.4	16	1300	600	800-100	Ustki yostiq bug' bilan, ostki bosimli vakum bilan.

Tikib ulash operatsiyalari va rejimi

19-jadval

t/r	Chok nomi	Konstruksiyasi	Qo'llash jarayoni	Iplarni chalishish turi	Tavsiya qilinqdigan		Rejimlar		
					Asbob uskuna	moslam	Igna	Ip	Baxya
1	2	3	4	5		7	8	9	10
1	Biriktirma		Yon qirgim ichki choklar ni tikish	Ikki ipli bir chiziqli mokki simon birikti rish	PFAFF 1181-8		100	40	4.5-6 mm
2	Yashirin biriktirma		Avraga astarni ulash chokida	Bir ipli kompyuterlashgan Murakkab chiziqli zanjirsimon biriktirish	MAIER 230 cl		28 BL	55L	1/8 mm
3	Yo'rmas h		Astar detallar ini yo'r mash	Ikkidan o'ntagacha zanjirsimon maxsus differensiyal yo'r mash	PFAFF GRIATIVE E 4874		90	55L	3/8 mm
4	Nuqtali puxtalash		Astar va yelka tutgichlarda	Bir ipli nuqtali kompyuterlash - gan zanjirsimon puxtalash	MAIER 660 CL		90 29 BD	40	-

Yelimlab ulash operatsiyalari va rejimi

20 -jadval

t/r	Operatsiy nomi	Ishlash jarayoni	Asbob uskuna	Operatsiya sxemasi	Namlab isitib ishlash							
					dazmollash				presslsh			
					Xaroratt	namlikk	bosimm	vaqtt	xaroratt	namlik	bosim	vaqt
1	Dazmollab Yelimlab ulash	Ilgichga qotirma yopishti rish	FRP-16 + 16		130 160	75	0.1 0.2	80	160 170	75	0.5	15 20
2	Yelimlab ishlov berish	Yon bo'lakka qotirma yopishti rish	TAR FL -260		130 160	75	0.1 0.2	60				

Detallarni o'zaro bog'lanish matritsasi

22-jadval

Detallar kodi	01	02	03	04	05	06	O'zaro bog'lanish yig'indisi
01	-	1	1	1	1	1	5
02	1	-	1	1	1	1	5
03	1	1	-	1	1	1	5
04	1	1	1	-	1	1	5
05	1	1	1	1	1	1	6
